

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

Кириш сўзи	6
1. Xolbekov Abdug‘ani KOLONIALIZMNING IJTIMOIIY QIYOFASI (TURKIY XALQLARNING ISTILO QILINISHI MISOLIDA).....	9
2. Убайдуллаева Раиса ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ И ПРАКТИКА ПРИМЕНЕНИЯ.....	17
3. Сеитова Зухрагон ОТРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ КРАСОТЫ В ПОЭЗИИ ПОЭТОВ-СУФИСТОВ.....	24
4. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SHFATI BOSHQARUVI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA TURLI YONDASHUVLAR TAHLILI.....	34
5. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA: DAVLATLARNING INTEGRATSIYA SIYOSATI (BUYUK BRITANIYA MISOLIDA).....	40
6. Ходжаев Собир ИНДЕКС АКТИВНОГО СТАРЕНИЯ И ЗАНЯТОСТЬ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	46
7. Абдувалиева Мумтозхон СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И БАРЬЕРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИ ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	55
8. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLAR MODERNIZATSIYALASHUVINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	66
9. To‘raxo‘jaeva Ra‘no AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI YUZAGA KELISHIDA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING O‘RNI.....	73
10. Nematova Dilfuza KAMBAG‘ALLIKNI O‘RGANISHDAGI ILMIY NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	78
11. Eshmanova Iroda TRENDS IN CHANGES IN THE NATIONAL MENTAL CHARACTERISTICS OF UZBEK YOUTH IN MIGRATION CONDITIONS.....	87
12. Teshayev Doniyor OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISH BO‘YICHA MEDIATORLAR TAYYORLASH YO‘NALISHLARI.....	94
13. Pخomov Umrbek O‘ZBEKISTON MAHALLALARIDA YOSHLARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI.....	100
14. Nurqulov Bunyod YOSHLAR SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI.....	106
15. Qobilov Uchqun DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH UYG‘UNLIGI.....	114

16. Izzatulloeva Kamilla IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF ANTI-CORRUPTION EFFORTS IN THE SOCIAL SPHERE OF UZBEKISTAN.....	120
17. Burxanov Xusniddin AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	128
18. Imomova Nozimaxon O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI SUBYEKTLARI SA'I-HARAKATLARINING MOTIVATSION TAVSIFI.....	135

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


То‘рахо‘jaeva Ра‘но,

О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat boshqaruvi akademiyasi dotsenti

rano.dba@gmail.com

АҲОЛИ ОРАСИДАГИ НОРОЗИЛИК КАЙФИЯТИНИ YUZAGA KELISHIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16423464>

ANNOTATSIYA

XXI asrni axborot texnologiyalari asri, deb ta’riflanishi kundalik hayotimizdagi axborot texnologiyalarining egallagan o’rni bilan ifodalash mumkin. Darhaqiqat, axborot texnologiyalari hayotimizga kirib kelishi qator qulayliklarni yaratish bilan bir qatorda umumiy kayfiyatni ham belgilash darajasiga chiqib bormoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlarni ishonchliligi rasmiy ma’lumotlarnikidan ham yuqori sanalmoqda. Mazkur maqolada bugungi axborot texnologiyalarining rivojlanishi xususan, sun’iy intellektning fuqarolar kayfiyatiga hamda ijtimoiy barqarorlikka ta’siri yoritishga harakat qilingan. Shuningdek, maqolada bu borada xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari hamda nazariy yondoshuvlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, ijtimoiy tarmoq, “deepfake”, “ovoz kloni” (voice cloning), qamrovli ma’lumotlar bazasi, DeepFaceLab, faceswap.

Турахужаева Раъно,

Доцент Академии Государственного Управления

при Президенте Республики Узбекистан

rano.dba@gmail.com

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВОЗНИКНОВЕНИИ НЕДОВОЛЬНЫХ НАСТРОЕНИЙ СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

Тот факт, что XXI век называют веком информационных технологий, можно объяснить тем местом, которое информационные технологии занимают в нашей повседневной жизни. Действительно, внедрение информационных технологий в нашу жизнь не только создает ряд удобств, но и определяет общее настроение. Сегодня достоверность информации в социальных сетях считается выше, чем у официальной информации. В данной статье предпринята попытка осветить развитие современных информационных технологий, в частности, влияние искусственного интеллекта на настроение граждан и социальную стабильность. В статье также рассматриваются результаты исследований и теоретические подходы зарубежных ученых по данному вопросу.

Ключевые слова: информационные технологии, искусственный интеллект, социальная сеть, «deepfake», «voice cloning», комплексная база данных, DeepFaceLab, faceswap.

Turakhujaeva Rano,Associate Professor of the Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan
rano.dba@gmail.com**THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE EMERGENCE OF
DISCONTENT AMONG THE POPULATION****ABSTRACT**

The fact that the 21st century is called the century of information technology can be explained by the place that information technology occupies in our daily lives. Indeed, the introduction of information technology into our lives not only creates a number of conveniences, but also determines the general mood. Today, the reliability of information in social networks is considered higher than that of official information. This article attempts to highlight the development of modern information technology, in particular, the impact of artificial intelligence on the mood of citizens and social stability. The article also discusses the results of research and theoretical approaches of foreign scientists on this issue.

Keywords: information technology, artificial intelligence, social network, “deepfake”, “voice cloning”, complex data base, DeepFaceLab, faceswap.

KIRISH

Bugungi kunimizni axborot texnologiyalarining yordamisiz, kun davomidagi yangi ma'lumotlarni kuzatmasdan tasavvur etish tobora qiyinlashib bormoqda. Aynan onlayn turli platformalar bizning muloqot maskanimizga aylandi. Yangi internet dasturlarining rivojlanishi har bir shaxsning turli ma'lumotlarga, axborotlarni olish imkonini yaratib bermoqda. Ushbu yangliklarning rivojlanishi albatta har bir shaxsning kundalik hayotini, ilm olish, turli xizmatlardan foydalanishda qator yengilliklarni yaratishi bilan bir qatorda bugungi kundagi axborot oqimining rivojlanishi natijasi fuqarolar orasida norozilik kayfiyatini ham keltirib chiqarmoqda.

So'nggi yillar davomida asosan ijtimoiy tarmoqlarning ijtimoiy fikrni shakllantirishga bo'lgan ta'sirini o'rganishga borasida qator ilmiy amaliy izlanishlar olib borilgan. Bugungi kunga kelib axborot texnologiyalarining rivojlanishi xususan, suniy intellektning imkoniyatlari bir tomondan quvonarli ikkinchi tarafdin ijtimoiy xavfni ham keltirib chiqarmoqda.

METODOLOGIYA

Aholi orasida norozilik kayfiyatini paydo bo'lishida axborot texnologiyalarining rolini o'rganishda sifatli tahlil usullari qo'llanildi. Xususan, axborot texnologiyalarining norozilik kayfiyatini keltirib chiqarishda ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarning tarqalish dinamikasi, usullari tahlili keltirilgan. Shuningdek, suniy intellektning yangi dasturlaridan foydalanish natijasidagi ijtimoiy o'zgarishlar va bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasi ko'rib chiqilgan. Axborot texnologiyalarining jamoatchilik fikriga hamda xulq-atvoriga ta'siriga oid nazariy ma'lumotlar va tadqiqotlardan foydalanilgan.

ASOSIY QISM

Axborot texnologiyalari bugungi kunda ma'lumot olish uni tahlil qilish va tarqatishni tubdan o'zgartirib yubordi. Agarda avvallari asosiy ma'lumotlar televideniya, gazeta, radio orqali olingan bo'lsa bugun ijtimoiy tarmoqlar, onlayn OAV, turli internet saytlar ushbu vazifani bajararmoqda. Bu transformatsiya yangi imkoniyat bilan bir qatorda ijtimoiy barqarorlik xavfini keltirib chiqarmoqda. Xususan, 2023-yilgi tadqiqotlarga ko'ra, yoshlarning 24% ijtimoiy tarmoqlardagi mashhur blogerlarning fikrlariga quloq tutishlarini bildirishgan [1, – B. 4]. Bu kabi holatlar kundan kunga kuchayib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda kuzatuvchilari soniga qarab shaxsni mutaxassis yoki mutaxassis emas degan toifaga ajratib qo'yilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi ijtimoiy muammoning bir tomonini tashkil etsa bugungi axborot texnologiyalarining rivojlanishi hamda ularning ijtimoiy tarmoqlarga integratsiyasi ham turli noroziliklarni keltirib chiqarmoqda.

Bu borda so'ngi yillar davomida ko'plab shaxslarning “o'ng qo'liga” aylangan sun'iy intellektning rivojlanib borishini misol keltirish mumkin. Ushbu masala butun dunyo uchun dolzabr

masala bo‘lib qolmoqda. Xususan, Yevropa Komissiyasi tomonidan tashkil etilgan Yevropa tadqiqot kengashi (European Research Council Established by the European Commission) olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra bugungi kunda suniy intellektdan foydalanish natijasida fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ta‘sir ko‘rsatish darajasi yuqorilashgan. Tadqiqotchi Reychel Gibson tomonidan bu borada shunday fikr bildiradi. “Sunij intellektdan foydalanish ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda katta ta‘sir kuchiga ega. Unda sizning auditoriyaningiz haqida chuqur ma‘lumotlarga ega keng qamrovli ma‘lumotlar bazasi shakllanadi.


Xususan, sunij intellekt ma‘lumotlar bazasida demografik xususiyatlar, shaxsning qiziqishlari va ehtiyojlari va xattoki uning psixologik portretini ham shakllantirib bera olish kuchiga ega. Ushbu ma‘lumotlarni maqsadli o‘z auditoriyaningizni yig‘ishga, ularga ta‘sir etish, strategik qarorlarni belgilab berishga hizmat qiladi. Sunij intellekt sizning ta‘sir dasturingizni shakllantirish, har bir chiqishlaringizni mavjud ma‘lumotlar bazasiga asoslangan holda qadamma qadam shakllantirib bera oladi” [2].

Bu kabi imkoniyatlar sanoatning yangi bosqichiga chiqish, davlat boshqaruvini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish darajasini yuksaltirish ta‘lim, turli davosiz kasalliklarni ilmiy o‘rganish bilan birga fuqarolarning fikrlash tarzlariga ta‘sir ko‘rsatish hamda ularni boshqarish imkoniyatini ham yaratadi.

Ushbu masalani yanada chuqurroq o‘rganish maqsadida The EdWeek Research Center tadqiqot markazi tomonidan sunij intellektning yoshlarga ta‘sirini o‘rganish maqsadida AQSh 18 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan yoshlari o‘rtasida, shuningdek, 600 ga yaqin professor-o‘qituvchilar o‘rtasida tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra professor-o‘qituvchilarning 69% yoshlarning sunij intellekt doimiy foydalanishi oqibatida keyingi 10 yillikda ruhiy salomatligi nobarqaror bo‘lgan shaxslarning shakllanishini ta‘kidlashgan. 24% professor-o‘qituvchilar sunij intellektning yoshlarning intellektual salohiyatiga “juda salbiy” ta‘sir ko‘rsatishini bashorat qilishmoqda. Professor-o‘qituvchilar 15% gina yoshlarning ta‘lim jarayonida sunij intellektning qo‘llashi natijasida ijobiy natijalar kutilayotganligini ta‘kidlashgan [3].

Professor o‘qituvchilarning yoshlarning barcha masalalar bo‘yicha sunij intellektga murojaat etishlari natijasida shaxsdagi tanqidiy fikrlash, idrok, diqqat kabi psixik jarayonlarni sustlashishi. Mustaqil qaror qabul qila olmaslik hamda yoshlarning passiv xayot tarziga o‘tib qolishlarini kuzatishlari natijasida ushbu xulosalar olinganligini ta‘kidlashgan.

Tadqiqotning ikkinchi qismi esa yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan bo‘lib, qatnashchilarning 45% sunij intellektdan foydalanish o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatishini, endilikda ko‘plab vaziflar yuzasidan uzoq vaqt biror narsani fikrlash yoki biror tahliliy ma‘lumot uchun uzoq vaqt sarflash shart emas, degan fikrni bildirishgan. Bu esa yoshlarning ko‘plab stress holatlaridan asrab qolayotganligini hamda vaqtdan unumli foydalanishga imkon berayotganini ta‘kidlashgan. Yoshlarning 19% sunij intellektdan foydalanish natijasida fikrlash hamda tahlil qilish qobiliyatining pasayishini kuzatganliklarini ham sunij intellektni zararli deb hisoblashlarini ta‘kidlashgan. Qatnashchilarning 6% esa sunij intellektni o‘ta zararli, deb ta‘kidlashgan (1-rasm).



1- Sunij intellektning yoshlarga ta‘siri

Qolgan 31% qatnashchilar suniy intellekt ta'siri bo'yicha betaraflikni bildirishgan. Yoshlar o'rtasidagi tadqiqot natijalariga ko'ra 45 % yoshlar suniy intellektni ijobiy ta'sir etishini bildirishgan bo'lsa, 24% qatnashchilar uning salbiy oqibatlariga olib kelishini bildirganlar. Shuningdek, 31% qatnashchilar ushbu savol bo'yicha betaraf bo'lishgan.

Suniy intellektning salbiy taraflarini o'rganar ekanmiz, yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugungi kunda suniy intellektning turli dasturlari ishlab chiqilmoqda. Xususan, "Aqlli" savodxon -suniy intellekt orqali sifatli tekstlar va audiolar yaratish [4] dasturi bo'lib bu dastur orqali siz istalgan mavzuda matn hamda unga audio yaratishingiz mumkin. Shuningdek, "ovoz kloni" (voice cloning) deb nomlangan dasturi ma'lum bir shaxsning so'zlashuvi ovoz tembri, intonnatsiyasini ko'chirgan holadi o'zi shu shaxsning ovozini imitatsiya qila oladi. Ba'zida buning uchun 30 soniya yetarli. Asosan suniy intellekt Tacotron, WaveNet, FastSpeech texnologiyalaridan foydalanadi [5]. Ushbu dasturlarning imkoniyatlari haqida birinchi marta 2020-yil Wall Street Journalning maqolasida Buyuk Britaniyaning energetik kompaniyasining ijrochi direktorining ovozini suniy intellekt yordamida klonlashtirib kompaniyaning boshqaruvchisidan 243 million aqsh dollari o'g'irlanganligini ma'lum qilganda [5] ushbu dasturlar G'arb olimlarining e'tiborini tortgan. Bu kabi dasturlarning ijtimoiy xavfli tomoni ushbu dasturlardan himoyalaniş usullarining yetarli ishlab chiqilmaganligida.

Bu kabi holatlar kundan kunga ko'payib bormoqda. Xususan, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari orasida yangi "deepfake" tushunchasining kirib kelishi ham ushbu dasturlarning ommalashib borayotganligiga asos bo'la oladi. Kasperskiy ensiklopediyasida keltirilishicha "deepfake" bu suniy intellekt yordamida tasvir, video va toshuvlar real holatdagidek imitatsiya qilib beruvchi texnologiya. "deepfake" ma'lum bir shaxsning turli vaziyatlardagi holatini tasvirlab bera oladi. Shuningdek, shaxsning nutqiga taqlid qilish uchun suniy intellekt yordamida yaratilgan yozma matnlarni ham o'z ichiga oladi [6].

"Deepfake" turli yo'nalishlarda foydalanilishi mumkin. Xususan:

- firibgarlik. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "deepfake" orqali ma'lum bir shaxsning ovozi orqali firibgarlik qilish.

- siyosiy maqsadlarda. Misol tariqasida Ukraina Prezidentining Rossiya bilan konfliktlarni to'xtatishi maqsadida taslim bo'lish taklifi bilan chiqishi [7]. Keyinchalik, Ukraina Prezidenti matbuot xizmati tomonidan ushbu chiqish suniy intellekt yordamida tayyorlangan "deepfake" ekanligini ma'lum qilgan.

- pornografiyada. Bunda suniy intellekt yordamida ma'lum shaxsning tashqi ko'rinishi bilan pornografiya tasvirlarini yaratish orqali shaxsga nisbatan kiberbulling amalga oshirish. E'tiborli jihati bu holatlarning yoshlar o'rtasida keng tarqalib borayotgani. Bu bo'yicha The EdWeek Research Center tadqiqot markazi AQShning Koliforniya shtatidani maktabda shu kabi holatlarning yuz berishi natijasida yoshlar orasida haqiqiy psixologik zo'ravonliklarni kelib chiqqanligini ta'kidlaydi [8].

- diniy ekstremistik oqimlarga qilingan da'vatlarda. Bunda ijtimoiy tarmoqlar orqali diniy ulamolarning ovozi ko'rinishining o'zgartirilishi orqali yoshlarni turli oqimlarga da'vat qilish holatlarini keltirishimiz mumkin.

- Deep Nostalgia ot MyHeritage [9]. O'tmishdagi shaxslarning suratlari orqali video rolik, filmlarni yasash. Ushbu video roliklarda eski suratlardagi shaxslarning kulishi, biror xabar yuborishi va boshqalarni yaratish mumkin. Ushbu dastur sanat yo'nalishida, tarixiy voqealarni shakllantirishda muzeylarda ham foydalanishi mumkin.

Bugungi kunda "deepfake" yaratishda suniy intellektning quyidagi dasturlaridan foydalanilmoqda.

DeepFaceLab – ushbu dastur bugungi kunda "deepfake" yaratishdagi eng samarador dastur sanaladi. Ushbu dasturdan foydalanish uchun ma'lum bir bilimlar talab etiali.

Faceswap – ushbu dastur barcha uchun mo'ljallangan bo'lib, asosan foto va video deepfake yaratishga moslashtirilgan.

Zao – Xitoy dasturchilari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, turli mashxur shaxslar bilan "deepfake" ishlab chiqishi bilan foydalanuvchilar orasida mashxur.

MyHeritage Deep Nostalgia – eski suratlar orqali animatsiya yaratishga mo‘ljallangan. Qiziqarli jihati ushbu dasturning yoshlar orasida mashxurlashib ketishiga AQShning eng mashxur blogeri Kim Kardashyan turmush o‘rtog‘i tomonidan otasining suratlari orqali yaratilgan gologramma unga tug‘ilgan kun tabrigini aytganidan keyin butun AQShda katta e‘tibor qozondi.

Synthesia – videokonet yaratish uchun platforma bo‘lib, ushbu dastur turli xorijiy tillarni imitatsiya qila oladi.

Avatarify – istalagan shaxsning yuz ifodasini real vaqtdagi holtga o‘tkaza olish imkonini beruvchi dastur bo‘lib, asosan “deepfake” yaratishda keng foydalaniladi.

Ushbu dasturlarning keng tarqalishi hamda ulardan foydalanuvchilarning soni oshishi o‘z navbatida ularning psixologik hamda ijtimoiy xavfsizligiga tahdid solmoqda deb ayta olamiz. Suniy intellektning keng qamrovli rivojlanishi fuqarolarning real hamda virtual voqeilik orasidagi farqni ajarata olmaslik holatlarini keltirib chiqarmoqda.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarga asoslangan holda quyidagi xulosalar olindi. Bugungi axborot texnologiyalarining rivojlanishi hamda ularning ijtimoiy tarmoqlarga interatsiya qilinishi natijasida fuqarolar orasida turli rasmiy iqtiboslarga asoslanmagan ma‘lumotlarni tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa o‘z navbatida fuqarolar orasida turli noroziliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Sun‘iy intellektning negativ ta’sirlarini oldini olish hamda ularni bartaraf etish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Bunday real hamda virtual voqeilik uyg‘unlashib ketayotgan davrda fuqarolar orasidagi xotirjamlik xamda ishonchni saqlab qolishda. Bugungi kunda kiberxavfsizlik bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kab etmoqda. Fuqarolar orasida ushbu dasturlardan foydalanishdagi xavfsizlik choralari haqida ogohlantirish ishlarini olib borish, ijtimoiy tarmoqlarda turli musiqiy hamda shaxsning emotsiyalariga ta’sir etuvchi videolarni tarqatishda ogoh bo‘lishga chaqirish va internet savodxonligini oshirish maqsadaga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, yoshlar orasida internet hamda ijtimoiy tarmoqlardagi kiberbulling haqidagi ma‘lumotlarni berish hamda bu borada psixologik xavfsizlikni oshirishga qaratilgan immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora tadbirlarni kengaytirish maqsadaga muvofiq sanaladi.

Адабиётлар/ Литература/ References:

1. Голубин Р.В., Исакова И.А., Коротышев А.П., Рыхтик П.П. Интернет-технологии воздействия на социально-политическую активность молодежи: социологический анализ // Известия Саратовского университета.
2. <https://erc.europa.eu/projects-statistics/science-stories/how-technology-reshaping-political-campaigns>
3. <https://www.edweek.org/technology/most-teens-think-ai-wont-hurt-their-mental-health-teachers-disagree/2024/03>.
4. 中国《人工智能标准化白皮书2018》发布完整版 // 中国电子技术标准化研究院. 2018 [Полная редакция «Белой книги 2018 года по стандартизации искусственного интеллекта» в Китае// Чжунго дяньцзыцзишу бяочжуньхуа яньцзююань. 2018]. URL: <https://pan.baidu.com/s/1hueUZM8>.
5. <https://www.edweek.org/technology/most-teens-think-ai-wont-hurt-their-mental-health-teachers-disagree/2024/03>.
6. <https://www.trendmicro.com/vinfo/us/security/news/cyber-attacks/unusual-ceo-fraud-via-deepfake-audio-steals-us-243-000-from-u-k-company>.
7. <https://encyclopedia.kaspersky.ru/glossary/deepfake/>
8. <https://www.edweek.org/technology/most-teens-think-ai-wont-hurt-their-mental-health-teachers-disagree/2024/03>.
9. <https://www.myheritage.com/deep-nostalgia?lang=RU>.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000